

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-aygustdan chiqa boshlagan

2006-yil 2 - 8 - oktabr N:40 (66581)

## «RAMAZON»CHI BOLALAR

Mana, Ramazon oyiga ham yetib keldik. Ramazon oyi qadrlash va ko'ngillarni poklash oyi. Bu oyda urishib qolgan odamlar bir-birlari bilan yarashishadi, hatto Amir Temur davrida bu oyda urushlar, jang-u jadallar ham to'xtatilgan. Odamlar yaxshi niyatlar bilan ro'za tutib, Yaratganga shukronalar aytishgan. Ro'za oyida qadimgilar udumiga ko'ra, yosh bolalar uyma-uy yurib Ramazon aytishgan. Ramazon aytgan bolalar mazkur uydagi odamlarga baxt-saodat, uzoq umr tilashgan. Kuni kecha uyimizga Ramazon aytib kelishgan bolalarning «she'rini» eshitib, hayratdan yoqa ushladim.

Ramazon aytib keldim eshicingizga,  
Qo'chqordek o'g'il bersin beshicingizga...  
Opchiqing, opchiqing, tog'oraga sop chiqing,  
Tog'oraga sig'masa, nog'oraga(!) sopchiqing.  
Paq-paq otaman, 100 so'm bersangiz ketaman...  
Qo'limga bir hovuch konfet olib, bolalarga peshvoz chiqdim.  
-Konfet kerakmas, pul beraqoling, - deyishdi ular.  
-Bu she'rni qayerdan o'rgangansiz, - desam, «bolalardan», deyishadi.  
«Bolalar» kimdan o'rganishgan? Uyma-uy yurib, Ramazon aytishdan maqsad nima o'zi? Pul yig'ishmi yoki savob olishmi?

Xonzoda ODIROVA,

Parkent tumanidagi 35-o'rta maktab muallimasi.



Kerak bo'lsa, bir necha marotabalab o'tgan mavzularni tushuntirishdan erinmagan, yillar davomida o'quvchilarining injiqqliklariyu erkaliklarini ko'tarib, ularni o'z farzandidan-da aziz ko'rganlar - USTOZLARdir!

Ular yosh avlodga bilim berish bilan birga ta'limgartarbiya nurini ham sochadilar. Shu boisdan ham xalqimiz azal-azaldan ustozga cheksiz ehtiromlar ko'rsatgan.

Rixsi opa G'iyosova fidoyi ustozlar sarasiga kiradi. Toshkent tumanidagi 26-maktabda (hozirgi Yunusobod-dagi 273-maktab) uzoq yillar ishlab, respublikamizga mashhur kimyogarlarni yetishtirgan ustozni bayram bilan olqishlab huzuriga bordik. Ustoz keng hovlida, qo'sh kelinlar-u qator nabiralar qurshovida farovon umr kechirar ekan. Bir qarashdayoq bu hovlida ziyoli insonlar yashashini ilg'ab olish qiyin emas: kitoblar, gazeta va jurnal taxamlari, turmush o'rtoi, taniqli endikrinolog olim Jo'ra Oripov hamda to'ng'ich o'g'li Yorqinjonning mangu xotiraga aylangan suratlari...

Ustozni biz bayram bilan tabriklasak, ular bizni tinimsiz olqardilar:

- Sizlar ham ustozsizlar. Axir siz nashrqa tayyorlayotgan bolalar gazetasini o'qib, xat-savodim chiqqan. Demak, bu bayram sizlarniki ham...

Halgacha esimda, biz oilada 9 nafar farzand edik. Saharlab Yunusobod bozoriga sut olib borib sotib kelardim, keyin maktabga ketardim. U paytda bunday portfellar qayoqda, onam bizga bo'zdan jild tikib bergandilar. Jildning ichiga kitob-daftarlarni bilan birga turshak, qoqi, mayiz solib, qo'limizga siyohdonni olib, maktabga borardik. Opa-singillarim bilan birga bir-birimizning kiyimlarimizni kiyardik, gohida maktabdan paxtaga olib chiqishardi. Qiyinchiliklarga qaramay, faqat yaxshi o'qishga harakat qillardim. Maktabni bitirib, Nizomiy nomidagi Pedagogika institutiga kirganimda, uyimizdan qatnashga qiynganligim uchun katta opamlarnikida tunab qolishga majbur bo'lganman. O'shanda pochcham institutgacha olib borardilar, darsim tugagach, yana qaytarib olib kelardilar. Chunki u paytlarda talaba qizlar juda kam edi.

Qiz bolaga o'qish kerakmas deganlar ham topilgan. Ammo dadam (Olloh rahmat qilgan bo'lsin) meni o'qimishli qiz bo'lishimni juda-juda istardilar. Menden

keyin ukalarimda o'qishga havas uyg'ondimi, ular ham birin-ketin o'qishga kirishdi. Hozirda katta ukam Niyoziy G'iyosov Pedagogika institutida kafedra mudiri, kimyo fanlari doktori, kichik ukam Qo'chqor G'iyosov ham kimyogar, Agrar universitetida ishlaydi, dotsent ...

- O'qituvchilik faoliyatizingizni qachondan boshlagansiz?



Institutni bitirganimdan so'ng, mahallamizdag'i maktabga kimyo o'qituvchisi bo'lib ishga kirganman. Mirsoat aka, Roza opa, Nuriddin aka Nosirov, Orif aka, Mirsoat aka singari tajribali o'qituvchilar bilan yelkamayelka turib ishlashga, ulardek tajribali bo'lishga harakat qillardim. O'quvchilarim ham meni yaxshi ko'rishardi. Uzoqdan ko'rishlari bilan men tomon yugurib kelishardi, qo'limdagi narsalarni olib, bir-birlariga gal bermay chug'urlashib ketishardi. Ba'zi o'quvchilarim hatto kechasi ham uyimga kelib, tushunmagan masalalarni tushuntirib berishimni iltimos qilardi... Xullas, o'quvchilarim juda bilim olishga chanqoq edilar. Kechalari uxlamasdan tajribamni o'tkazardim. Ertasi kuni o'tkazgan tajribamni o'quvchilarimning ko'z oldida ko'rsatardim. Laboratoriya xonasiga kirish uchun hech qaysi bolaga ruxsat bermasdim, chunki u yerda turli zaharli, portlaydigan moddalar bo'lardi. Kichkinagina laboratoriya xonasida kattakon shkafdag'i moddalar solingen idislarni birma-bir o'zim tozalab

chiqardim. Tajriba uchun moddalarni asosan dorixonalardan olardik. O'sha paytda mening fanimga juda ko'p o'quvchilarim qiziqishardi. Naima, Axror singari o'quvchilarim ko'p o'tmay yonimda kasbdoshga aylanishgan... Bir yili maktabimizda yong'in chiqqan. Juda dahshatga tushgamiz. Ma'rifat dargohimizning yonishini ko'rguncha ko'r bo'lsak bo'lmasmidi!.. O'sha yili tinmadik. Mahalladoshlar yordami bilan maktabni qaytadan oyoqqa turg'azgandik. O'shanda ayol o'qituvchilar ham erkak o'qituvchilar bilan yonma-yon turib ishlashgandi. U paytlarda yosh bolalilarga hozirgidek imtiyozlar yaratilmagandi, bolamni beshikka belab ishga yugurardim. Katta tanaffusda kelib, chaqalog'imning qornini to'ydirardim. Shu orada katta o'g'lim tayyorlab qo'yan choyni ichishga ham ulgurardim...

-Erishgan yutuqlaringiz haqida ham gapirib bering...

-Maktabda ishlab yurgan davrimda bir guruh o'qituvchilarini Finlyandiya safariga jo'natishgandi. Fin ko'rfazida cheki yo'q dengizni ko'rib, shoshib qolqandim. Ayniqsa, kemaga chiqamiz deyishganda, qo'rqib ketganimni aytmaysizmi? Juda sodda ekanman-da. Kema har bong urganda, bir cho'chib tushardim... Maktabdag'i yaxshi faoliyatim, shogirdlarimning yutuqlari sabab, menga «Moskvich» mashinasi bilan hovli-joy solishim uchun yer ham berishgan. Ana shu olganlarimdan erishgan yutuqlarimni bilib olsangiz bo'ladi. Mana, izzat-ikromdamon. Farzandlarimning barchasi o'qimishli. O'g'lliarim To'lqin, Turg'un, Zafar, To'lagan muhandislik kasbini egallahsgan. Qizim Sayyora boshlang'ich sinf o'qituvchisi. 15 nabiraning buvisiman. Yaqinda nevara kelin tushirdik. Shogirdlarimning esa sanog'i yo'q. Ular har safar bayram arafasida kelib, tabriklab ketishadi. Bir ustoz uchun shuncha yutuq yetarli, deb o'layman. Agar kuchim, madorim yetsa, hozir ham kitob o'qisam, bolalarni o'qitsam deyman.

Yillar davomida orttirgan xastaligi-yu, sochiga tushgan oq tolalari ham ko'ziga ko'rinxay ketayotgan bu ustoz shu kunlarda 72 yoshni qarshilabdilar. Shogirdlari, oila a'zolari qatorida biz ham ularni muborak yoshlari bilan qutlarkanmiz, chindan ham topganlarining yo'qotganlariningizdan bisyor bo'lsin, biz Sizga havas qilamiz, deymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.

## Muassislari:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'Imagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

## PAZANDA-YU SARISHTAMAN

Men pishir-kuydirga rosa qiziqaman. Bo'sh vaqtim bo'ldi deguncha turli shirinliklar, salatlar, ovqatlar tayyorlashga tushaman. Kitob javonimda ham taomlarga oid kitoblar talaygina: Karim Mahmudov tomonidan yozilgan «O'zbek milliy taomlari»ni yoddan bilaman. Hozirgi kunda dunyo taomlarini o'rganayapman. Ozgina muammosini aytmasa, dunyo taomlarini tayyorlash ham cho't emas ekan. Muammo deganda ba'zi bir masalliplarni nazarda tutyapman. Masalan, kashtan mevasi, ananas sharbat, zaytun donachasi kabilarni ba'zida bozordan ham topib bo'lmaydi. Men oynayi jahon orqali beriladigan «Dunyo taomlari» ko'rsatuvining har bir sonini ko'raman. Unda beriladigan ovqatlarni o'rganib, daftaramga yozib qo'yaman. «Fikri-zikri faqat ovqat ekan», deb o'ylamang. Men tanovvul qilishni emas, ularni san'at darajasida yasatishni, hammani lol qoldirishni istayman. Kelajakda ham qo'li shirin oshpaz bo'lsam, deyman.

Malika ZIYOVUDDINOVA.

*Ikki dunganadan xat*

## AKAM ASKAR

Akam yigitlik burchini o'tashga ketdilar. Tez orada ularni sog'ina boshladim. Chunki menga juda mehribonlar-da. Sog'inganimdan har kuni xat yozayapman. Faxrlanganimdan hatto bir-ikkita she'r ham bitdim. Chunki akam askarlik kiyimini kiyishga juda oshiqdilar. Ba'zi yigitlar kabi turli bahonalar bilan nogironlik varaqalarini to'g'rilamadilar. Harbiy xizmatdan bosh tortgan yigitlar kelajakda qanday inson bo'larkin-a? Axir sog'lik, matonatlik, iroda degan tushunchalar harbiy xizmatda shakllanadi-ku. Ota-onaning qadriga ham o'sha yerda yetishadi, deyishadi. Mayli, ular o'z yo'liga. Men ana shunday mard, sheryurak akam borligidan faxrlanaman.

Nigora JO'RAYEVA,

Namangan viloyati, Chortoq tumani,

Alixon qishlog'idagi 19-maktabning 8-sinf o'quvchilari.

## SARALAYIN SIZGA GULDASTA

Men o'qiydigan maktab tumanimizda eng namunali maktablardan desa bo'ladi. Direktorimiz Yoqub Abdiyev, muovini Dilshod Ochilov, ilmiy mudirimiz Husan Suyarovlar maktabimiz gullab-yashnashi, o'quvchilar bilim saviyasi o'sishi uchun larning yaxshi o'qib, sport

hamma sharoitlarni qilishadi. Sinf

opa Karimova

to'garagini dilar. Sinf-

«Tong

tasiga obuna

yot to'ga-

gazeta da

maqlolalar,

va she'rlarni

qilamiz. Paxta

onalarimizga

maqsadida paxtaga

«Tong yulduzi»ga obuna

bo'ldik. Gazetamiz orqali dunyodagi eng chiroyli so'zlardan guldasta yasab, aziz ustozlarni va men uchun mehribon dadajonimni o'qituvchilar bayrami bilan tabriklamochiman. Dadajonimni bir so'z bilan haqiqiy ustoz desa bo'ladi. Dadam ko'p yillar mobaynida hokimiyatda, men o'qigan maktabda direktor, oqsoqollar kengashi raisi bo'lib ishlaganlar. Hozirda esa xalq ta'limi bo'limida uslubshunos bo'lib ishlayaptilar. U kishi har bir maktabga, har bir bog'chaga borib, o'zlarining maslahatlari bilan ko'maklashadilar.

Bugun uyimizda haqiqiy bayram. Rustam va Kamoliddin akalarim dadamning shogirdlaridan Shomurod Arslonov, Bahrom Oydinovlar bilan gullar tutib dadamni tabriklagani kirib kelishdi. Ustoz uchun eng ulug' baxt shogirdlarining so'roqlab kelishi bo'lsa kerak... Men ham dadajonimga gulzorimdan terilgan eng sara guldastamni tutdim. Ularning quvonganlarini ko'rib, men ham suyunib ketdim.

Umida NURMURODOVA,  
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi  
65-maktabning 8-sinf o'quvchisi.



## SHOIRA BO'L SIN



Ko'nglingiz beg'ubor, oq qorday,  
So'zlarining mayin, go'yoki parday.  
Ko'zlarining yoqimli: sehri borday,  
Bag'ringiz oldida dunyo ham torday.

Farzandim, deb bizni suyasiz doim,  
Biz-la birga yonib kuyasiz doim.  
Bilmasdani ko'nglingiz og'ritganda ham,  
Kechirasiz, kulib qo'yasiz doim.

Qiyalsak bo'lasiz boshda parvona,  
Siz bizga onasiz, emas begona.  
Ona farzand uchun doim yagona,  
Kim farzandin onadek sevadi yana...

Qutlug' ayyomingiz muborak bo'lsin,  
Beg'ubor ko'nglingiz nurlarga to'lsin.  
Yana necha yuzlab shogirdlariningiz,  
Madhingiz bituvchi shoira bo'lsin.

Nodira SHUKUROVA,  
Toshkent shahar, Hamza tumanida  
joylashgan 226-maktabning  
8-«A» sinf o'quvchisi.

## ASALARI

Sen xushbo'y chechakni quchgaysan mudom,  
Muattar bog'larga uchgaysan mudom.  
Gullar sharbatini ichgaysan mudom,  
Mening ham bog'imga kel asalari.

Bor mehring tutgaysan gulgun chechakka,  
Nomin madh etgaysan osmon-falakka.  
Pok qalb-la eltgaysan ezgu tilakka,  
Mening ham bog'imga kel asalari.

Xush fe'ling o'zimga andoza qilay,  
Sadoqatdan senga koshona tilay.  
Seningdek kamtar-u mardona bo'lay,  
Mening ham bog'imga kel asalari.

Olisga termulgan nurli ko'zingiz,  
Hamisha jilmayib turar yuzingiz.  
Bunchalar ma'noli aytgan so'zingiz,  
Otajon, men sizga o'xshagim kelar.

Mehnatdan charchamas qadoq qo'lingiz,  
Sadoqat va vafo yurgan yo'lingiz.  
Baxtinga doimo omon bo'lingiz,  
Otajon, men sizga o'xshagim kelar.

Ijtimoiy yo'nalişdagı Respublika maxsus  
gimnaziyasining 11- sinf o'quvchisi.

## OTAJON



## KUZ ONLARI



Derazamning ortida tinmay:  
Shildirab yomg'ir yog'ardi.  
Yo'llarini yuvib tabiat,  
Daraxt xazonlarin to'kardi.

Eh, bu kuzning go'zal onlari,  
Yuragimdan ilhomim jo'shar.  
Kamalakning rangin jilosи,  
Falak yerga jilmayib boqar.

Kimdir ishga, kimdir o'qishga,  
Otlanishgan qo'lda soyabon.  
Kun o'tadi qalbimda, ammo,  
O'sha yomg'ir izlari qolgan.

Zamira SAIDOVA,  
Toshkent shahri, Sobir Rahimov  
tumanidagi 133-maktabning  
10-«A» sinf o'quvchisi.

Albatta futbol o'yinini barchangiz miriqib tomosha qilasiz. Hatto dunyodagi eng kuchli yulduz futbolchilarga o'xshagingiz ham keladi.

Hukumatimiz tomonidan «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorida ham, futbolimiz nufuzini oshirish, jamoalarga munosib o'rinnbosarlar tayyorlash, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash hamda ko'plab qulayliklar ko'zda tutilgan.

Ushbu qaror barcha murabbiylar va futbolchilarni ruhlantirib yuborgan-di. Bu boradagi ishlar bilan tanishish uchun biz ham Respublika Olimpiya zahiralari kollejiga oshiqdik.

Kollejga kirib borishimiz bilan maydonda o'z shogirdlariga ko'rsatmalar berayotgan tinib-tinchimas murabbiy Sergey Petrovni uchratdik. Ular o'z shogirdlari bilan to'pni uzoq masofaga aniq oshirish bo'yicha mashq qilayotgan ekanlar. Ular orasida topshiriqni risoladagidek bajarayotgan ikki nafer yosh futbolchi diqqatimizni tortdi.

## CHIROQCHIDAN "YULDUZ" CHIQADI

Asliddin Lutfullayev -1991-yilda tug'ilgan.

U Qashqdaryo viloyatining Chiroqchi tumani, Chiroqchi shahridan.

Asliddin hozir Respublika Olimpiya zahiralari kollejining futbol bo'limida 9-sinfda tahsil oladi.

Asliddinni biz maydon chetiga chorlaganimizda, futboldan vaqtini juda qizg'angandek yonimizga yaqinlashdi.

-Siz «qaysi chiziq»da to'p surasiz?

-Chap qanot yarim himoyachisiman.

-Qaysi futbolchiga o'xshashni xohlaysiz?


«Paxtakor» va O'zbekiston terma jamoasi yarim himoyachisi Server Jeparovdek to'p sursam deyman. Oliy liga jamoalarida o'ynash va muxlislarga yoqadigan o'yin ko'rsatishni orzu qilaman.

-Kollejda sharoitlar qanday? To'p tepish-chi?

-Ertalab va kechki payt futbol mashg'ulotlari bo'ladi. O'rtasida esa darslar o'tiladi. Sharoitlar yaxshi. Besh mahal ovqat berishadi.

-Asliddin, yoz bo'yim mashg'ulotlarda bo'ldik, deyapsiz. Zerikarli emasmi?

-Yo'q, aksincha, mazza qilaman.



Avvalo, nufuzli championatlarda champion bo'lish har bir sportchining eng katta orzusi bo'ladi. Sveta opangiz ham balandlikni zabt etish bo'yicha birinchi bo'imoqchi edi. Yaxshi niyat unga hamroh bo'ldi.

Keling, endi Svetlana Radzivilning mamlakatimizda qo'lga kiritgan natijalarini sanab o'taylik:

U O'zbekiston championatida 189 sm. balandlikka sakrab, mutloq champion, Osiyo championatida esa 190 sm. yutuq bilan qit'aning tengsiz sportchisiga aylangandi. Pekindagi jahon championatida esa xitoylik Xingjuan Zing-jiddiy raqib bo'ldi. U avvalgi jahon championatida 192 sm. natija bilan g'oliblikka erishgandi. Biroq, «o'z uyida» o'tgan championat Xinguanga zafar hadya etolmadi. 191 sm. natija bilan Sveta, 188 sm. natija bilan Xingjuan musobaqani tark etdi. Demak,

## CHEMPIONLIKKA- MAKTAB OSTONASIDAN

Pekin shahridagi tantana yurtimizni yana bir bor dunyoga tanitdi.

G'olib sportchimiz yurtga qaytgach, uni olamshumul g'alabasi bilan barcha qutladi. Sveta opangiz uchun eng hayajonli sovg'a bu - yurtboshimiz tomonidan topshirilgan qimmatbaho esdalik edi.

G'alaba yana g'alabani chorlaydi, deganlari chin gap ekan-da. Championlik nashidasi Sveta Radzivilni aslo charchatmayapti, aksincha, u ayni kunlarda Qatar poytaxti Doxa shahrida o'tadigan Osiyo o'yinlariga qizg'in hozirlik

**Qoyil!**



ko'ryapti.

Darvoqe, sal bo'lmasa yodimizdan chiqay debdi-ya.

-Men, - deydi Sveta Radzivil, - jahon championi bo'lmasligim ham mumkin edi. Maktabda o'qib

minnatdorchilik bildiraman. Qolaversa, bugungi kundagi murabbiyim Vladimir Andreyevning dadil ko'rsatmalarini championligimga qanot bo'ldi, desam aslo yanglishmayman.

Ha, O'zbekiston nomini dunyoga doston qilayotgan iste'dod egalari oramizda juda ko'p. Ammo, champion opangiz aytganidek, ularni o'z vaqtida ilg'ay olish aynan - Sizning maktabingiz ostonasidan boshlanar ekan.

**Ma'mura MADRAHIMOVA.**

## BOYITILGAN UN BORMI?



Sobir mактабдан uyiga kirib kelishi bilan onasi uning qo'liga pul va yelim xalta tutqazdi:

- Bor bolam, chopqillab do'kondan ikki kilogramm boyitilgan un olib kelgin, manti qilib beraman,- dedi.

- Xo'p, - dedi-yu, yugurib ketdi. Bir necha do'konni axtarib, axiyri bittasidan boyitilgan unni topdi. Sobirga un berayotgan sotuvchi yonidagi sotuvchiga qarab:

- Endi boshliqqa

aytib, «temir bilan boyitilgan un»dan ko'proq keltirmsak bo'lmaydi. Bu unning foydasi ko'pligini, boshqasidan arzonligini eshitgan odamlar kun bo'yisi so'rashganisо'rashgan,-dedi.

- Oyijon, bu boyitilgan unni nima uchun odamlar ko'p olayapti, -deya so'radi Sobir uyg'a kira turib.

- Ha, o'g'lim, sen ham bilib qo'ygin. Boyitilgan un koni foya. Unning tarkibiga temir moddasi va ko'pgina mikroelementlar qo'shilgan. Ana shu undan tayyorlangan mahsulotlarni har kuni iste'mol qilish, homilador ayollar, bolalar va o'smirlar uchun juda zarur. Boyitilgan unni ishlab chiqarishni yo'lda qo'yish va aholi iste'moliga berish ham davlatimizning avlodimizni sog'lomlashtirish yo'lidagi g'amxo'rliklaridan biridir.

## BILAG'ON QIZCHA



O'yinchoq o'ynayotgan Gulsanam bir narsa esiga tushganday o'rnidan turib:

- Oyijon, men bog'chadan kelganimga necha soat bo'ldi? - deb so'radi.

- Bir-ikki soat bo'ldi shekilli, ni ma ga so'rayapsan, qizim?

Bugun

bog'chamizda kechki ovqatga temir bilan boyitilgan undan pishirilgan bo'g'irsoq va kompot berishdi. Men choy so'ragandim, bog'cha opamiz «Hozir choy ichish mumkin emas, 1-2 soatdan so'ng uyingda ichasan», dedilar.

Buni eshitgan Gulsanamning shifokor oyisi darhol tushunib, qiziga bir piyola choy uzatdi. Haqiqatan ham non va non mahsulotlari bilan choy, kofe, kakao ichilsa, temir moddasining so'riliш xususiyati susayadi, uning o'rniga sharbat, kompot va qaynatilgan suv ichish lozim. Choyni esa 1-2 soatdan so'ng ichish mumkin.

Qizining bog'chasidagi tarbiyachilarining tibbiy bilimdonligidan xursand bo'lib, minnatdorona jilmayib qo'ydi.

## SARVI XOLA QARORI

Sarvi xola mahallaning obro'-e'tiborli va faol ayollaridan biri.

Kecha mehmonorchilikdan kech qaytdi-yu, yotoqxonasiga kirib ketdi. Lekin, tun bo'yisi uyqusи qochib, homilador kelinini o'ylab chiqdi.

- Tavba, hozirgi yoshlarga hayron qolasan, kishi. Xilma-xil ovqatlarni, mevalarni og'ziga tutsgang ham qoni kam emish. Kechagina shifokor tavsiyasi bilan dorilar ichdi, vitaminlarga boy mevalardan iste'mol qildi. Qayta tekshiruvga borganida haliyam o'zgarish bo'lmapi...

Xola ertalab barvaqt turdi va o'g'lining nonushtaga chiqishini poyladi.

- Assalomu alaykum, oyijon, yaxshi yotib turdingizmi? - dedi o'g'li o'z joyiga o'tirayotib.

- Vaalaykum assalom, Arslonbek bolam, ishlaring yaxshimi?- so'z boshladi Sarvi xola, - kecha qo'shniyiznikida yig'inda qatnashgan edim. O'sha yerda shifokor va jurnalist ayollardan bir gap eshitdim.

- Nima gap ekan, oyijon? - dedi o'g'li.

- Xabaring bor, kelinim Nasibaxon homilador bo'lganidan beri «kamqonlik» xastaligi bor. Kecha qayta tekshiruvga borib, qon tahlili natijasi o'zgarmaganini aytdi.

- Nima qil deysiz, oyijon?

- Avvalambor, kelinimni e'tibor bilan qaratgin shifokorlarga, ham onasi, ham bolasi sog'lom bo'lsin desang. Ikkinchidan, eshitishimcha, davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlangan «unni temir moddasi, turli mikroelementlar bilan boyitish» dasturi ishlab chiqilibdi. Bu undan tayyorlangan oziq-ovqatlar ayollarni, bolalarni kamqonlikdan asrashga yordam beradigan eng arzon va oson yo'li emish. Jurnalist singlimiz shu boyitilgan bug'doy unni tayyorlash jarayonini tegirmonda ko'rganini gapirib, bir uy mehmonlarda qiziqish uyg'otdi. U ayolning aytishicha, bu usul 1941-1980-yillardan beri butun dunyoda (Yevropa, Kanada, AQSH, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda) amalga oshirilmoqda ekan. Har bir mamlakatda o'z aholisi eng ko'p iste'mol qiladigan mahsulotlar (masalan, bug'doy uni, guruch, soya sousi, tuz va shakar, baliq sousi va h.k.) temir moddasi bilan boyitilar ekan. Bizning mamlakatimizda ham qanchadan-qancha mablag' sarflab, kamqonlikning oldini olish va bartaraf qilish maqsadida «temir bilan boyitilgan un» ishlab chiqarilayotgan ekan, biz ham bundan foydalanishimiz

joiz.

- O'g'lim Arslonbek,-dedi Sarvi xola o'z so'ziga xulosa qilib, bugundan boshlab uyg'a faqat temir bilan boyitilgan un olib kelasan, bu mening qarorim!

Chunki nabiralarimda, qolaversa, oila a'zolari mda kamqonlik kasalligi bo'lmasin deyman. Tug'ilajak nabiram ham sog'-sałomat tug'ilsin-da.



«XO'P MAZZA

Bug'doy-nonne  
Hidlab kelar Aziza,  
Buncha xushbo'y,  
Buncha xushbo'y bo'lmasa,  
Aylantirib,  
Tishlab ko'rар Aziza,  
Ta'mlari-chi,  
Juda shirin,  
Xo'p mazza...

## SHIRMOY NONDAN O'RGILAY

Bug'doy unga aylanadi,  
Mashaqqatl yo'l bosib.  
Boyitildi bir yo'la,  
Temir moddasi qo'shib.  
Tegirmon-u, tegirmon,  
Tegirmon dan o'rgilay.

«Bismillah» deb unlardan,  
Xamir qordi onalar.  
Shirmoy nonlar yopdilar,  
To'yib yesin bolalar.  
Shirmoy non-u, shirmoy non,  
Shirmoy nondan o'rgilay.

Temir, darmondoriga,  
Taqisliklar bo'lmasin,  
Jismonan yetuk bo'lgin,  
Bolani Haq qo'llasin.  
Bolajon-u, bolajon,  
Bolalardan o'rgilay.

Boyitilgan un yaxshi,  
Sog'lom o'ssin avlodim.  
Sabzavot, mevalar yeb,  
Jaylon o'ssin avlodim.  
Kelajagim, avlodim,  
Avlodimdan o'rgilay.

**Mohi Ramazon muborak!**

Kuni kecha Saudiya Arabistonining Milliy kuni va Mohi Ramazon kirib kelishi munosabati bilan poytaxtimizning Interkontinental mehmonxonasining «Olmos» majlislar zalida Saudiya Arabistoni Podshohli ginning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Mansur bin

Ibrohim Muhammad al-Mansur janoblari bilan tanishtiruv va qabul marosimi bo'lib o'tdi. Elchi janoblari mehnatlarni shaxsan kutib olib, o'z tabriklarini yo'lladi.

Muhtaram xonimlar va janoblar! Barchamizga kirib kelgan iyd-ramazon oyi muborak bo'lsin. Bu oy fazilatlar, barokatlar va hosiyatlarga boy bo'ladi. Qalblar yorishadi, ruh poklanadi, ko'zlar egzilikka qadalladi, - deb suhbatni boshladi elchi janoblari, - Saudiya Arabistoni va O'zbekiston o'rta delegatsiyalar turli sohalardagi aloqlar hozirda yana-da rivojlanmoqda. Bunga Saudiya va O'zbekiston hukumatlararo qo'shma komissiyasining ikkinchi yig'ilishini va hukumatlar o'rta delegatsiyalar memorandumining imzolanishini hamda o'zaro investitsiyalarni himoyalash va rag'batlantirish bo'yicha bo'lib o'tgan birinchi muzokalarlarni misol qilish mumkin. Shuningdek, yaqin kunlarda yana bir qator shartnomalar yuzasidan rasmiy muzokalarlar boshlanish arafasida turibdi. Bu shartnomalardan muhimlari: ikkiyoqlama soliqdan voz kechish va havo qatnovi to'g'risidagi shartnomadir. Bularning barchasi Ollohnning inoyati

va ikki muqaddas masjid xodimi Podshoh Abdulloh bin Abdulaziz Os Saud va u kishining birodari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov janobi oliylarining ikki tomonlama aloqalarni mamlakatlar va birodar xalqlar manfaatlariga xizmat qilishi uchun ko'rsatayotgan fazl va inoyatlari ostida

Prezident I.A.Karimov janobi oliylariga ishonch yorliqlarini topshirish sharafiga tuyassar bo'ldim. Prezident janobi oliylari bilan uchrashuv va suhbat do'stona kayfiyatda o'tdi. Men birodari bo'lmish ikki muqaddas masjid xizmatchisi Podshoh Abdulloh bin Abdul Aziz va Vazirlar Mahkamasi raisi o'rnbosari, mudofaa va aviatsiya vaziri, bosh inspektor - Valiahd Shahzoda Sulton bin Abdul Azizning qutlovlarni yetkazdim. Prezident I.A.Karimov janobi oliylari ham ularga o'z samimiyl kutlov va tilaklarini yetkazib

qu'yishimni so'radilar. Shundan so'ng bo'lib o'tgan suhbat chog'ida Prezident janobi oliylari Saudiya-O'zbekiston munosabatlari o'z baholarini berib, ularni ikki mamlakat va birodar xalq farovonligi yo'lida rivojlantirishni yoqlab chiqdi.

**O'zbekiston to'g'risidagi taassurotlaringiz qanday?**

O'zbekistonda ilk marotaba ekanimga qaramay, men o'zimni begona davlatdagidek his etayotganim yo'q. Bu yerga kelgunimga qadar yurtingiz to'g'risida ko'p ma'lumotga ega edim. Men tarixga oid, Imom al-Buxoriy to'g'risidagi kitoblarni, uning «Saxih al-Buxoriy» asari, Ibn Sino, al-Xorazmiy, at-Termizi, al-Beruniy va O'zbekistonda dunyoga kelgan boshqa ko'plab allomalar meroslari to'g'risidagi kitoblarni o'qib, mamlakat bilan tanishganman. Yurtingizdagagi ko'hna shaharlarda bo'lganda, islam sivilizatsiyasining asrlar davomida xalqlar yo'lini mash'ala misoli yoritib kelgan me'morchilik va fan borasida bunday katta yutuqlarga erishganidan faxrlanasan kishi. O'zbekistondagi bugungi yangilanishlarga qarab esa, biz mamlakat hayotining turli sohalardagi taraqqiyot va yuksalishga guvoh bo'lamiz. Bir so'z bilan aytganda, o'zimizni o'tmish bilan hozirgi zamon o'rta turgandek his etamiz, go'yo. Tinchlik va barqarorlik qaror topishi uchun turli tomonlarning birgalikdagi yana-da ko'proq sa'y-harakatlariga umid qilamiz. Oolloh Taborak va Taolodan barchamizga tavfiq berib, turli baloqazolardan asrashini so'rab qolamiz.

## SAUDIYA-O'ZBEKISTON ALOQALARIGA BIR NAZAR

Saudiya Arabistoni Podshohligi Osiyoning janubi-g'arbiy qismida joylashgan.

Maydoni - 2 250 000 kvadrat kilometr.

Aholisi - 16 929 294 kishi, ulardan 72.7 foizi saudiyaliklar.

Pul birligi - Saudiya riali, 100 xalalayga teng. (1 AQSH dollar = 3.75 rial)

Iqlimi - yozda Selsiy bo'yicha 40 darajadan yuqori.

Ma'muriy viloyatlari - Podshohlik 13ta viloyatdan iborat: Riyod, Makka, Madina, Al-Qosim, Sharqiylar, Asir, Tabuk, Shimoliy chegara, Jazan, Najran, Baxa va Jouf.

Milliy bayrami - 1902-yili podshoh Abdulaziz tomonidan birlashtirilgan Saudiya Arabistoni har yili Tarozi burjining birinchi kunini - 23-sentabrni Podshohlikning Milliy kuni sifatida nishonlaydi.

amalga oshmoqda. Saudiya Arabistoni Podshohligi va O'zbekiston Respublikasi o'rta delegatsiyalar izchil rivojlanib bormoqda. Tomonlar o'zaro delegatsiyalar bilan almashib kelmoqda. Xususan, o'tgan yilning fevralida O'zbekiston delegatsiyasi Ar-Riyoddagi xalqaro terrorizmga qarshi kurashga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada ishtiroy etdi. 2005-yil dekabr oyi o'rtalarida podshohlikning Maslahat kengashi raisi Solih al-Humayd rasmiy tashrif bilan yurtingizda bo'ldi. Bundan sal ilgariroq, ya'ni, 2005-yil 5-8-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri SH.Mirziyoyev rahbarligidagi delegatsiya Islom konferensiyasi tashkilotiga a'zo davlat va hukumatlar rahbarlari sammitida ishtiroy etish maqsadida Saudiya Arabistoni Podshohligida bo'lgan edi. Mamlakatlarimiz o'rta delegatsiyalarining kengayishiga ikki davlat rahbarlari - ikki muqaddas masjid xizmatchisi Podshoh Abdulloh bin Abdul Aziz va O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov katta qiziqish bildirmoqdalar.

Bir necha kun ilgari men Saudiya Arabistoni Podshohligining O'zbekistondagi elchisi sifatida

## SAUDIYA ARABISTONIDA TA'LIM TIZIMI

### MAKTAB TA'LEMI


Boshlang'ich ta'limga 6 yillik bo'lib, bolajonlar maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi. O'rta maktab ikki bosqichli: to'liqsiz o'rta (3 yil) va to'liq o'rta (3 yil) maktabdan iborat. Boshlang'ich maktab negizida hunar-teknika maktablari (4 yillik), to'liqsiz o'rta maktab negizida hunar-teknika bilim yurtlari (2 yillik) ishlaydi. Ta'limga davlat qaramog'ida bo'lib, mamlakat fuqarolari va chet elliklar uchun bepul qilib belgilangan. Maktablarda o'g'il va qiz bolalar alohida-alohida o'qiydi. Ta'limga e'tibor yaxshi qaratilgani bois hukumatimiz iqtidorli bolalarni tez-tez mukofotlab turadi. Aytaylik, yaxshi rassomning rasmlar ko'rgazmasini tashkil qilishiga, sportchining dunyoga chiqishiga, tarixga qiziquvchi yoshlarga sayohat uyushtirishda, ijodkorlarga kitob chiqarishda ko'maklashadi. Shuningdek, «Kashshof»lar tashkiloti ham o'quvchi yoshlar hayotining to'g'ri taqsimlanishiga, kasb-hunar egallashiga, qiziqarli muloqotlar uyushtirishga xayriyox. Eng iqtidorlilarini sovg'a-salomlar, pul mukofotlari bilan siylaydi. Saudiya Arabistoni Xalq ta'limi vazirligi ta'kidlashicha, hozirda fuqarolar faoliyatini Vazirligi bilan hamkorlikda ish olib borib, o'qituvchilar ehtiyojini qondirishda, maktab hayotida uchrab turishi mumkin bo'lgan kutilmagan vaziyatlarni adolatli hal etishda, ko'ngilsizliklarni bartaraf etishda qo'l keladigan turli yechimlarni ishlab chiqqan.

### OLIV TA'LEMI

Saudiya Arabistonda sakkizta universitetlar bo'lib, barchasi eng so'nggi rusumdagagi jihozlar bilan ta'minlangan. U yerda yuqori malakali professor va o'qituvchilar jahon standartlariga mos ravishda saboq beradi. Ar-Riyoddagi Podshoh Saud asos solgan birinchi universitetda aniq, tabiiy, shuningdek, gumanitar fanlar o'qitilsa, Madinadagi Islom universitetda islam ilmlari o'rganiladi. Ar-Riyoddagi Imom ibn Saud nomidagi Islom universitetda islam qoidalaridan tashqari arab adabiyoti, ijtimoiy fanlar o'rgatiladi...

1997 - yil oktabr oyida Saudiya Arabistoni oliv ta'limga vaziri doktor Xolid Al-Ankariy boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi. Delegatsiya «Podshoh Saud» nomidagi universitet rektori doktor Abdulloh bin Muhammad Al-Faysal, «Podshoh Abdul Aziz» nomidagi universitet rektori doktor G'azi Ubayd Madaniy, «Podshoh Faxd» nomidagi neft va rangli metall sanoati universiteti rektori doktor Abdul Aziz bin Abdulloh Ad-Daxiyil va ko'plab o'qituvchilardan iborat edi. Bu tashrif 2000-yil yana takrorlandi. Bugungi kunda nainki talabalar almashinib tahsil olmoqda, o'zbekistonlik bir guruh muallimlar Saudiya universitetlarida ta'limga berib kelmoqda.

Muharrama PIRMATOVA.



*Aziz bolajonlar! Siz yozuvchi akangiz To'lqin Hayitni yaxshi bilasiz. Chunki ularning «Tong yulduzi» sahifalarida chop etilgan «Yetti falak siri» qissasini o'qigansiz. Tinimsiz izlanib, qalami charxlanib borayotgan yozuvchining «Vaf malikasi», «Meni kechir, bolajon», «Dashnobod hangomalari», «Shohi Zinda», «Ulug' Amir o'gitlari» kabi asarlari chop etilgan. Yaqinda ijodkor Sohibqiron «Amir Temur haqida rivoyatlar» kitobini yozib tugatdi.*

*To'lqin akangiz o'zining ushbu asarida Temur bobongizning bolaligi haqida sizlarni qiziqtiradigan, havasingizni keltiradigan, o'rnak bo'ladigan xislatlari haqida ancha-muncha ma'lumotlar bergan. Quyida shu kitobdan berilayotgan rivoyatni o'qisangiz, o'zingiz bunga amin bo'lasiz.*



Baland g'ishtin qo'rg'onning ikki tavaqali keng, qo'n-g'irtus darvozasi lang ochiq. Xizmatkorlar rango-rang bezatilgan otlarni yetaklab chiqishayapti. Maktabdan qaytayotgan bola Temurbek padari buzruk vorning qayoq-qadir otlanayotganini darhol sezdi. «Otasing tashvishlari ko'p.

Xon yo'qlagan yoki biror bek to'yga chaqirgan, balki biror cho'ponning boshiga tashvish tushgandir. Padari buzruk vori yetib bormasa, ul bechora chorasisiz qolib, g'am-anduhga botadur».

Muhammad Tarag'ay hovlida edi. Egnida buxorocha oq shohi ko'ylak, nim ko'kimdir jelak, oyog'ida yangi amiri kovush. «Mehmonlikka otlanibdurlar, -ko'ngidan o'tkazdi Temurbek. -Har safar mehmonlikka shunday odmi kiyinib boradurlar». U qo'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qildi:

-Assalomu alaykum, padari buzruk vor.

-Va'alaykum assalom! Mullo bo'ling, o'g'lim! - Muhammad Tarag'ay uni keng, issiq quchog'iga bosdi. -Uya kirib, ust-boshingizni yangilab chiqing, - dedi so'ng. -Sizni fozil bir xeshingiz birlantanshiturmen. Bo'yingiz o'sib qoldi. Bundan buyon yor-birodarlarni yo'qlab turish vazifangizdir!

Temurbekning oqish, nim pushti yuzida sarosimalik soyasi ko'rindi. Muhammad Tarag'ay o'g'lida ikkilish paydo bo'lganini sezdi.

-Zarur yumushlaringiz bormu, Temurbek!

Temurbek ko'zlarini pirpiratib javob qildi: -Sayfuddin bilan yilqimizni ko'rgani borishga va'dalashgan edik.

Muhammad Tarag'ay jilmaydi:

-Va'daga vafo qilmoq er yigitning nufuzini oshiradur, o'g'lim. Bu xislatingizdan g'oyat mammunmen.

Temurbekning tiniq, beg'ubor ko'zlarini pirpiradi: -Ammo men uchun avvalo Sizning so'zlarining amri vojibdur, padari buzruk vor! Lozim topsangiz, yo'lda Sayfuddin do'stimnikiga kirib, uzrimni aytib chiqsam: yilqini ko'rishga ertaga borsak ham bo'lador.

Muhammad Tarag'ay o'g'lining ma'nodor nigofiga sinchkov boqdi: -Sayfuddinbek og'ir olmaydurmni?

-Ul ham padari buzruk vori so'zini amri vojib deb biladigan bola!

Muhammad Tarag'ay o'g'lining aqlli javobidan

suyunib bir gaz o'sdi.

Keng osmon shahlo qizchaning beg'ubor ko'ziday tip-tiniq, moviy. Quyosh jilva qiladi. Ertalabki yomg'ir butun olamni yuvib, tarab qo'ygan. Dov-daraxtlar yam-yashil, top-toza liboslarga o'ralgan. Murg'ak barglar yuzida zarrin nurlar yalt-yult tovlanadi. Keng bug'doyzor dalalar yashil gilam to'shalganday: chopqillab, dumalab, irg'ishlab o'ynaging keladi.

Otasining so'rovi Temurbekning xayolini bo'ldi:

-Bilasizmi o'g'lim, ismingizning tarixi g'oyat qiziq. Buni bilib qo'yaningiz ma'qul! Bir kuni uyqumda yosh, chiroyli, arabga o'xshash yigit menga qilich berdi. Men uni qo'lga olib, havoda o'ynatgan edim, butun jumlayi jahon yorishib ketdi. Hazrat pirimizdan ta'bir so'rasam, ul zot: «Payg'ambarona

## TILXAT

tush ko'ribsan: Xudo senga bir dono o'g'il beradi, u jahongir bo'lg'ay», dedilar. Sichqon yili shabonning yigirma beshida siz dunyoga keldingiz. Aqiqa vaqtida sizni hazrati shayximiz oldiga olib kirganimda, muborak Qur'oni karimning: «Amantum man fi-s-sama an yuxifa bikuma-l arda fa iza xiy tamuru» oyatini qiroat etib turgan ekanlar. Oyatda «tamuru» so'zi bo'lganligi uchun senga Temur ismini berdilar.

Temurbek uchun bu yangilik edi. Pirlari Keshning ulug' odami. Shamsiddin Kulol hazratlari shunday deya bashorat qilgan ekanlar, unga ishonsa bo'ladi.

Ular bir arava sig'adigan tosh yo'ldan o'ng tomonga burilishdi. G'ishtin devorli hovli. Baland oppoq imorat ko'zga tashlanadi.

-Keldik! - dedi Muhammad Tarag'ay.


Otar dupurini eshitib, ichkaridan ignaki do'ppi kiygan yoshgina yigit chiqdi. Salom berarkan, ikki tavaqali og'ir darvozani zo'rg'a ochdi.

Qarindoshlari xo'ppa semiz, g'undalakkina, biroz soddarroq kishi ekan. Quchoq olib, avval Muhammad Tarag'ayni bag'riga bosdi. So'ng Temurbekni dast ko'tarib, uch-to'rt bor gir-gir aylantirdi.

Mehmonxona keng, yorug', derazalari baland, oynalari ko'kish edi. O'tirishdi. Omin qilishdi. Xizmatkor yigit oftobada iliq suv, mis dashnik ko'tarib chiqdi. Qo'llarini yuvishib, oppoq artishdi.

-Ko'p yashang! - dedi Muhammad Tarag'ay xizmatkor yigitga.

Egnida yo'rma yoqali oq shoyi ko'ylak kiygan chuvak yuz yigit qo'lida katta sarg'ish dasturxon ko'tarib kirdi. Muhammad Tarag'ay muloyim jilmayib



ochirmang. Chunki ular bir-birlari bilan ko'p suhbatlashadilar.

Imomuddinning dumaloq yuzida nur o'ynadi, Muhammad Tarag'ayga qarab hayajon ila dedi:

-Sizning bu farzandingiz jahonga podshoh bo'ladi, uning so'zlarida podshohlik amri bor, -so'ng o'rnidan turdi-da, tokchadan qalam va siyohdon olib, bola Temurbekning oldiga qo'ydi:

-Bek yigit, yozing! Menga tilxat yozib bering. Davlat qushi boshingizga qo'ngach, farzandlarim, surriyodlarim va yaqinlarimdan xiroj olmasinlar, ularning gunohlaridan o'tsinlar, qavmimga taxxon unvoni berilsin!

Bola Temurbek jilmaydi va chiroyli husnixatda unga tilxat yozib berdi. Imomuddin o'rnidan turdi-da, qog'ozni o'ng tomonda, burchakda turgan charm sandiqqa solib, qulflab qo'ydi.

Oradan yillar o'tdi. Muarrix Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuar» asarida quyidagi so'zni bitib qo'ydi: «Ul qavm (Imomuddin ajdodlari) to shu zamongacha Turkiston diyorida tarxonidirlar».

Aziz bolajonlar! Siz xalqimizning sevimli oqinlari, baxshilar haqida ko'p eshitgansiz-a. Ulardan biri Islom shoir Nazar o'g'lidir. Samargand viloyatining so'lim Narpay tumanidagi Galaqassob qishlog'ida tavallud topgan. Baxshi «Gulixiromon», «Hasanxon», «Ravshanxon» singari ajoyib dostonlarni maromiga yetkazib mustaqil kuylaganida 22 yoshda edilar. Baxshi bobongiz 40 dan ortiq dostonlarni yod bilgan. Ularning «Baxtiyor avlodlarga», «Tinchlik jarchisi» kabi dostonlari «Qahramonnom», «Jangnom» kabi to'plamlar orqali xalq orasida mashhurdir. Safarimizni sevimli oqinimiz qadami tekkan va ularning nomlari bilan ataluvchi Islom shoir fermer xo'jaliklar uyushmasidan boshladik. Fusunkor kuzning tengsiz inoyati bugun bog'bon-u sohibkor dalasiga tortiq etilgan. Chanoqlarda lo'ppi-lo'ppi bo'lib ochilib yotgan paxtalar ko'zni qamashtiradi. Tog' qadar uyulgan xirmonlar ona O'zbekistonimiz boyligiga boylik qo'shishi shubhasizdir. Beliga etak bog'lab, darsdan so'ng paxtakor ota-onalariga yordam berayotgan bir guruh o'quvchilar va ularning ustozlarini suhbato chorladik.

# O'ZBEKISTON BOY BO'LISINI!

## YIGIRMA BITTA «TONG YULDUZI»



**Feruza NASRIDDINOVA, o'qituvchi:**—Bizning Qudrat Suyunov nomli 60-umumiy o'rta ta'lim maktabimizda 400ga yaqin o'quvchi tahsil oladi. Ularga 30 dan ziyod malakali o'qituvchilar saboq berib kelishmoqda. Ta'lim maskanimiz rahbari Arziqul Jarqinovning say'-harakatlari bois tikuvchilik, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi kabi to'garaklarimiz zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan. Maktabimizda voleybol, basketbol, qo'l to'pi kabi sport seksiyalari, turli fan to'garaklar hamisha bolajonlarimiz bilan gavjum. Bir necha kundan buyon o'quvchilarimiz bilan birgalikda darsdan so'ng dalaga chiqib paxtakorlarga yordamlashayapmiz.

**-O'quvchilar darslardan qolib ketishmayaptimi?**

—Yo'q. Bolajonlarni ilgarigidek shomgacha dalada olib qolmaymiz. Ularga darslarini tayyorlashlari uchun barvaqt javob beramiz. Aytgancha, paxta mavsumi ham maktablar uchun ikki-uch oy lab emas, nari borsa 20-25 kuncha davom etadi. Chunki dehqon-fermer xo'jaliklarining o'z a'zolari hamda yaxshi haq to'layotganligi uchun hasharchilarini ham bisyor.

**Shoira ORZIYEVA, 6-«B» sinf o'quvchisi:**

—Sinfimizda 21 nafar o'quvchi bor. Men sinf sardoriman.

Dugonam Shohsanam bilan kim o'zarga bellashib, kuniga 20-25 kilogrammdan paxta terayamiz. O'tkir Ortikov, Ulug'bek Musurmonov, Rustam Eshmurodov, Mohinur Xoliqova, Durdona Nosirova kabi sinfdoshlarimiz ham ilg'or. Bir kunda sinfimiz o'quvchilarining tergan paxtalarini jamlasak, 600 kilogrammdan oshar ekan.

**-Paxta pullaringizni nimalarga sarflamoqchisiz?**

—Sinfimiz bilan kelishib olganimizdek, pullarimizni olgach birinchi navbatda har birimiz sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ga obuna bo'lmochimiz.

**-Sardor sifatida faqat a'lo baholarga o'qisangiz kerak-a?**

—«Lider»man desam oshirib yuborgan bo'laman. Ba'zan «4» baho olgan kunlarim ham bo'ladi. Haqberdi

### DIYORIM

O'zbekiston — tengi yo'q diyor,  
Olam ichra sen o'zing tanho.  
Bizlar esa eng baxtli avlod,  
Kelajaging etguvchi barpo.

### YAXSHIGA MUKOFOT

Adolat, razolat yashar yonma-yon,  
Barchasiga guvoh bu ko'hna dunyo.  
Yaratgandan kelar albatta bir kun,  
Yaxshiga mukofot, yomonga jazo.

**Feruza RAHIMOVA,**  
**Respublika Nafis san'at litseyi 7-sinf o'quvchisi.**

### ALLA AYTING BOLALARGA

Alla aytgan onamdayin,  
Men ham alla aytdim bolam.  
Orom olib uxbab qolgin,  
Tushlaringda kezgin olam.

Alla bolam, alla jonim,  
Olloh bergen nur-chirog'im.  
Senga qarab quvonarman,  
Sog'-salomat bo'l toychog'im.

Ona, degan tillaringdan,  
Shirin, asal so'zlaridengdan.  
Alpomishdek, Barchinoydek,  
O'rgilayin bo'ylaringdan.

Doim elga sodiq bo'Igin,  
Uni asrab o'ynab-kulgin.  
Dunyodagi onalarni,  
Onang kabi hurmat qilgin.



Nargiza EGAMOVA,  
Oqotosh shahar, 8-qurilish kasb  
humar kolleji o'qituvchisi.

Qurbanov, Nodira Berdiyeva, Zilola Xo'jayeva kabi muallimlarimizning haqqoniy baholari bizni yanada ko'proq o'qishimizga undaydi.

**Asliddin NURMATOV, Mirjalol MUSAYEVlar paxtalarining cho'g'i kamroq bo'lgani sababini so'rayman:**


**-Ilg'or bo'lolmabsizlar-ku?**

—Baribir qizlar epchil ekan. Ular juda tez va ko'pteryaptilar. Harchand urinmaylik, ularga yetolmayapmiz. Paxta terish qiyin ish ekan. 5-6 kilogramm kam bo'lsayam harakat qilayapmiz.

**Ha, o'qishni ham, paxtakorlarga ko'makni ham birdek eplayotgan bolajonlarga chindan-da havas qilsak arziydi.**



Jamila ERDONOVA.



## «BESH» GACHA SANASHNI BILARKAN...

Gulsanam Jamshid qizi Oqtosh shahrining Muqimiy mahallasida yashaydi. U yaqinda 1 yoshga to'lar ekan. Gulsanam endigina atak-chechak qilib yurayapti. Akasi va opasining qo'llilaridan tutib yurishni o'rganyapti. U hozirdan matematika olamiga qiziqayapti-yov.

«Bir yoshli qizcha-ya», deya hayratlanayapsizmi?

Avvaliga biz ham juda hayratlandik. Keyin bu qizchani imtihon qila boshladik. Hovlisidagi tovuqlarni ko'rsatib:


-Ular nechta, -deya so'radik.

Jajji qizaloq o'ng qo'l barmoqlarini ochib, «beshta», dedi.

Keksa buvisining kuzatuvlari bahona yana uni sinay boshladik: Gulsanamning qo'ichalariga bir siqimgina don berib tovuqlarni chaqirdik. U esa katakdan beshinchchi chipor tovuq chiqmaguncha qo'ichasidagi donni yerga tashlamadi. Nihoyat, sheriklariga ergashgan beshinchchi tovuq ham tashqariga chiqqanida qizcha darhol qiyqiranicha donlarni yerga sochib yubordi.

Nuriddin HAYDAROV,  
O'zMU talabasi.

## HUNARMAND QO'LLAR



faxrli 3-o'rinni egalladi. «Yil to'garak – 2006» ko'rik-tanloving respublika bosqichida yosh iste'dodli o'qituv-chilardan Muhabbat Mavlonova ishtirok etib, 3-o'rinni egallagani jamoa uchun sharaf bo'ldi. Ha, ijodkorlikka intilib yashayotgan buxorolik tengdoshlaringizning har bir kuni maroqli o'tmoqda.

Nodira MIRZAYEVA.



O'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda ijodiyot markazlarining o'rni beqiyosdir. Buxoro viloyati, Romitan tumani o'quvchilar ijodiyot markazida 58ta to'garak tashkil etilgan bo'lib, unda 2310 nafar o'quvchi yoshlari yosh texniklar, yosh o'lkashunoslar, badiiy nafosat yo'nalishi bo'yicha o'z bilimlarini oshirmoqdalar. «Yosh ekolog-kitobsevar» ko'rik-tanlovida ishtirok etayotgan to'garak a'zolaridan 41-iqtidorli bolalar maktabi o'quvchilari Oydin Shodiyeva, Dildora Hamroyeva, Shuhrat Salomov, Sevara Sharipovalar respublikada 1-o'rinni egallab, Toshkentdan qimmatbaho sovg'alar bilan qaytishdi. Shuningdek, «Gullar va qushlar» ko'rik-tanloving respublika bosqichida to'garak rahbari Jamol Qo'idoshev boshchiligida ishtirok etgan bilimdon o'quvchilar

**Ustoz ijodi**

### ETIQOD

Bola edik, sho'x, o'yinqaroq,  
To'polonlar qillardik hardam.  
Ammo juda bilinga chanqoq,  
Zo'r bilimdon edi ustoz ham.



Ustozdan so'rardik, bilmasak,  
U bilmagan narsa yo'q edi.  
Bexato urardi nishonga,  
Har bir so'zi misli o'q edi.

Bir kun kimdir dedi, daf'atan,  
Hayratlarga to'lib ziyoda.  
Bizning ustoz yecholmaydigan,  
Masala ham bormish dunyoda.

Qo'y do'stim, bu gaplarni dilda,  
Ustozga e'tiqod mustahkam.  
Bizning ustoz yecholmaydigan,  
Masala yo'q dunyoda hecham.

Mirza OAYNAROV,  
Sirdaryo viloyati, Sardoba  
tumani, o'qituvchi, mehnat  
fazriysi.



## DUDLANGAN TOVUQ

**Kerakli masalliqlar:** 2ta tovuq oyoqlari, 5-6 ta kartoshka, 50 gramm pista yog'i, tuz, ziravorlar.

**Tayyorlanishi:** Gaz patnisiga tovuqnini tuzlab, ziravorlar surtib, atrofiga kartoshkalar chirolyi to'g'rab teriladi. Ustdan ozgina pista yog'i quyladi. Gaz pechida 45 daqiqada o'rtal olovda pishiriladi.

## KEKS

**Kerakli masalliqlar:** 100 gramm qatiq, 2ta tuxum, 100 gramm margarin, 100 gramm un, 0,5 choy qoshiqda iste'mol sodasi, 50 gramm shakar.

**Tayyorlanishi:** Margarin eritib olinadi, qatiq, soda solib, tuxum, shakar, un barchasi bitta idishga ketma-ketlikda solinib, yaxshilab aralashtiriladi. Hosil bo'lgan suyuq xamirni yog'langan qolipa quyib, 45 daqiqada o'rtal olovda pishiriladi.

## O'ZGACHA SALAT

**Kerakli masalliqlar:** 2-3ta pomidor, 1-2ta bodring, 100 gramm kolbasa, salat bargi, mayonez.

**Tayyorlanishi:** Barcha masalliqlar to'rburchak shaklda to'g'ralib, idishda mayonez bilan aralashtiriladi. Likopchaga salat bargi qo'yilib, ustiga salat chirolyi qilib solinadi.

NARGIZA tayyorladi.

One yearling, older bird  
**TONG yulduzi**

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV  
(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),  
Dilbar ALIMJONOVA

«Sog'lom avlod uchun»  
hukumatga qarashli bo'limgan  
xalqaro xayriya jamg'armasi  
ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV  
(«Kamolot» YOIH markazini  
kengashi raisi vazifasini  
bajaruvchi),

Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMU bosh  
muhammarr o'rinnbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV  
(Andijon viloyati, Xalq ta'limi  
boshqarmasi boshlig'i),  
Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq  
ta'limi boshqarmasi boshlig'i),  
Feruza JALILOVA

(Bosh muhammarr o'rinnbosari),

Sobirjon SHARIPOV  
(Xorazm viloyati Xalq ta'limi  
boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston  
matbuot va axborot  
agentligida

022-raqam bilan 2003-  
yil 11-dekabrda  
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

**«O'zbekiston»**  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
Gazeta

**«O'zbekiston»**

nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va chop etildi.  
Gazeta haftaning dushanba  
kuni chiqadi. Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.

Adadi - 17171

Buyurtma N: J 2842

Dizayner va  
sahifalovchi:  
**Fazliddin**

**SHOYODGOROV**

Navbatchi:  
**Muharrama**

**PIRMATOVA**

Rassom:  
**Nodira MIRZAYEVA**

Manzilimiz:  
700129,

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10